



O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FONEMALARNING
TASNIFI VA TAVSIFI



Ganiyeva Dildora Sagdullayevna

*Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: maqolada tilshunoslikning fonetika bo'limiga oid nazariy qarashlarning o'rganilishi, tarixiy taraqqiyoti, tadqiq etilish jarayoni hamda amaliyot bilan bog'liq jihatlarini asoslashga qaratilgan. Jahon tilshunosligida o'rganilgan fonetik qatlam, unli va undoshlar tizimining muammolari, yechimlari, xususiyatlari, harf va tovushlardagi darajalarning sistemalari tahlilga tortilgan.

Аннотация: целью статьи является обоснование аспектов, связанных с изучением, историческим развитием, исследовательским процессом и практикой теоретических взглядов на кафедре фонетики лингвистики. Анализируются проблемы, решения, свойства, системы уровней букв и звуков фонетического слоя, систем гласных и согласных, изучаемые в мировой лингвистике.

Abstract: The article deals with justifying the study, historical development, research process and practical aspects of the theoretical views of the phonetics department of linguistics. The problems, solutions, features of the phonetic layer, vowel and consonant system studied in world linguistics, systems of levels in letters and sounds are analyzed.

Kalit so'z va iboralar: tilshunoslik, fonetika, harf, unli va undosh tovushlar, og'zaki va yozma nutq, fonologik asarlar.

Ключевые слова и фразы: лингвистика, фонетика, буква, гласные и согласные звуки, устная и письменная речь, фонологические произведения.

Key words and phrases: linguistics, phonetics, letters, vowels and consonants, spoken and written speech, phonological works.

Har qanday nazariyada tabiat, jamiat va inson tafakkurining obyektiv qonuniyatlari aks etadi. Nazariya amaliyot orqali paydo bo'ladi, lekin u amaliy tajribalarni shunchaki umumlashtirib qolmaydi, balki ancha ilgari ketib, predmetning yangi tomonlarini, aloqamunosabatlarini ochadi, shu bilan amaliyotga yordam beradi.

Tovush tilni namoyon etuvchi manbasidir, ya'ni til usiz namoyon bo'lmaydi. L.R.Zinder ta'kidlaganidek, tilning zaruriy qismini tovush tomoni tashkil qiladi. [1;4] Har qanday til asosida nutq tovushlari yotadi. Nutq tovushlari nutq organlari orqali shakllanadi, inson organizmida tilni yuzaga keltira oladigan boshqa organ yo'q.

Fonetikaga murojaat juda qadimdan boshlanib, u asosan nutq tovushlarini o'rganishga qaratilgan. Bu holat o'zbek tiliga ham mansub. Unda dastlabki xatlarni yaratish, yozuvlardagi ayrim harflarda berilgan tovushlarni tavsiflash bahonasida berilgan fikrlar bor. Tilshunos T.Sodiqov yozma yodgorliklarning sahifalarida, hoshiyalarida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ayrim nutq tovushiga berilgan tavsiflar ro'yxatini o'z asarida kiritgan.[2; 102-106] Shunga o'xshash ayrim tovushlar tavsifi M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ham uchraydi.

Umuman tilshunoslikda nutq tovushlari va ularning tiplari, tasnifi, akustikasi, artikulyatsiyasi yuzasidan bir necha maqola va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Turkiy tillar tilshunosligida ham nutq tovushlarining ayrim tomonlarini yoritib beruvchi asarlar yaratilgan.

Fonetika nutq tovushlarini o'rganishdan boshlanadi, lekin bu nutq tovushlarini fonemadan ajratib, alohida til hodisalari sifatida talqin qilish emas. Ular bir narsa bo'lib, nutq tovushida fonema shakllanadi, ammo fonema fonetikada emas, fonologiyada tadqiq etiladi, nutq tovushlari fonetikaning tekshirish obyektidir.

O'zbek tilshunosligida fonetika V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov hamkorligida yaratilgan. Ular nutq tovushi va fonema munosabati, fonemalar tavsifi, nutq tovushi o'zgarishi haqida, bo'g'in va urg'u haqida ma'lumot bergan.[3;36] Ulardan keyin A.N.Kononov ham o'zbek adabiy tili fonetikasiga to'xtalibshu doiradagi ma'lumotlar keltirgan. O'zbek tili fonetikasini yaratgan mazkur tilshunoslar asosan ruslar bo'lganligi sababli rus tilidagi ayrim fonetik qonuniyatlar o'zbek tiliga ham tatbiq etib yuborilgan.

O'zbek tilshunosligida yana shevalar fonetikasi ham mavjud bo'lib, bir qator tilshunos olimlarimiz ilmiy izlanishlar olib borgan. Bulardab biri A.Ishayevning Mang'it shevasi fonetikasiga beg'ishlangan ilmiy tadqiqot ishi bo'lib, unda nutq tovushlari, fonemasi, tovush o'zgarishlari va bo'g'inlar haqida ma'lumot bergan. Ikkinchisi F.A.Abdullayevning Xorazm shevasiga bag'ishlangan monografiyasida nutq tovushlari va ularning o'zgarishlari, uchunchisi esa S.Otamirzayevaning Namangan shevasi fonetikasiga oid ilmiy ishida nutq tovushlari va ularning o'zgarish qonuniyatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda hamma vaqt fonemalarni e'tiborda tutib, ularni unlilar va undoshlarga tasnif etiladi. Nutq tovushlari nazarda tutilsa ham, ular unlilar va undoshlarga bo'linadi. Unli va undosh nutq tovushlarining ichki tasnif qilinishi nazarda tutilar ekan, albatta, har biriga alohida yondashiladi.

O'zbek tiliga butunlay boshqa tizimga tegishli bo'lgan, boshqa oilaga mansub rus tili XX asr boshlarida faol ta'sir eta boshlagan. O'zlashtirilgan leksika o'ziga xos fonetikaga ega bo'lmay iloji yo'q. Uning tovushlari o'zbek tilidagi tovushlarga anchagina o'xshash bo'lsa ham, farqli tomonlari ham yetarlicha miqdorda bor.

O'zbek adabiy tilida unli tovushlar 14 ta bo'lib, yana shevaga mansub ikki unli tovush bor. Ularning artikulyatsiyasini birma-bir tartib bilan qayd etib tavsiflab o'tishga harakat qilinadi. Unli tovushlar og'izning ochilishiga ko'ra uch tipga bo'linadi: 1) tor unlilar, 2) o'rta-keng unlilar, 3) keng unlilar.

Undosh tovushlar akustik xususiyatiga ko'ra ikki tipga bo'linadi:1) sonantlar, 2) konsonantlar. Sonantlar asosan undan iborat bo'lib, unga kam miqdorda shovqin aralashadi, Konsonantning o'zi o'z navbatida yana ikki tipga bo'linadi. Ular jaranglilar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

va jarangsizlardan iboratdir. Jaranglilar kam miqdorda un aralashib, asosan shovqindan iborat bo'ladi. Jarangsizlar faqat shovqindan iborat bo'lib, tarkibiga mutlaqo un aralashmaydi.

Sonantlar undosh tovushlar ichida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan faqat *r* tovushidan tashqari hammasi uch nutq organidan iborat artikulyatsiya o'rniga ega. Bu artikulyatsiya o'rnidan faqat bir nutq organi un sirg'alishi o'zni bo'lib, ikki nutq organi un bosimi yo'lini to'sish vazifasini o'taydi.

Sonantlar sirg'alish o'rniga qarab ikki tipga bo'linadi: 1) burun sonantlari, 2) til yon sonanti.

O'zbek tilidagi sonantlar tavsif etilar ekan, tilda sonantlarni yuzaga keltiruvchi 13 imkoniyat, ya'ni shuncha artikulyatsiya o'zni mavjud. O'zbek tilida uning oltitasidan foydalanildi, qolgan o'rinlar bo'sh qoldi. Shundan kelib chiqib, ularni tasnif etiladigan bo'lsa, artikulyatsiya o'rniga ko'ra lab, til oldi, til orqa va chuqur til orqa sonantlari bor. Ular rezonator ton olish o'rniga ko'ra burun, til yon va titroq sonantlarga bo'linadi.

Unlilarning tarkibida asosan un keladi. Sonantlar ham asosan undan iborat. Shuningdek, ularning tovush kuchi maksimum yuqori amplitudani ko'rsatadi. Jarangli tovushlar asosi asosan shovqin bo'lib, qisman un aralashganligi kuzatiladi. Shuning uchun uning tovush kuchi 2mm. Amplitudadan yuqori ko'tarilmaydi. Jarangsiz tovushlar tarkibida un bo'lmaydi va oksillografik pero uning talaffuzida noldan yuqorini ko'rsatmaydi.

A.Mahmudov shu tovushlarning intonagrammadagi tahlilini o'z monografiyasida keltirgan.[4; 31] Ularda bu tovushlar tarkibida un miqdorining nihoyatda kam ekanligi ko'zga tashlanadi.

Konsonantlar uch nuqati nazardan tasnif etiladi:

1. Artikulyatsiya o'zni: a) lab artikulyatsiya o'zni, b) til artikulyatsiya o'zni, v) bo'g'iz artikulyatsiya o'zni kabilardan iborat.
2. Artikulyatsiya usuliga ko'ra konsonantlar: a) portlovchilar, b) sirg'aluvchilar, v) qorishiq (affrikat)lardan iborat.
3. Akustikasiga ko'ra konsonantlar: jarangli va jarangsiz kabilardan iborat.

Konsonantlarning artikulyatsiyasi usuliga ko'ra ham, akustikasiga ko'ra ham tiplari har bir artikulyatsiya o'rnida qayd etilishi mumkin. Shuni nazarda tutib, konsonantlarning har biri artikulyatsiya o'zni e'tibori bilan tavsiflab chiqiladi.

Konsonantlar artikulyatsiyasida aytilganiday uch nutq organi e'tiborda tutilgan: lab, til, bo'g'iz. Lab nutq organi ishtirokida ikki artikulyatsiya o'zni shakllangan: lab-lab va lab-tish. Har bir artikulyatsiya o'rnida olti nutq tovushi hosil qilinishi imkoniyati bor. Ularning har birida bittadan portlovchi va sirg'aluvchi, bittadan jarangli va jarangsizi hosil qilinadi.

Nutq organlari, o'zbek tili nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, konsonantlar uchun yetti artikulyatsiya o'zini shakllantiradi. Bu artikulyatsiya o'rinlarida 42 konsonant hosil qilish uchun imkoniyat bor. Bu konsonantlar, turgan gapki bir-biridan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

artikulyatsiya o'rinlarida 42 konsonant hosil qilish uchun imkoniyat bor. Bu konsonantlar turgan gapki bir-biridan artikulyatsiya o'rni, usuli va akustikasiga ko'ra farqlanadi. Shunga qaramay, o'zbek tilida ularning 25 tasidan foydalanilgan. Ularning ham 7 tasi o'zlashtirilgan leksikaga mansub so'zlar tarkibida uchraydi, ya'ni bular o'zbek tiliga o'zbek tiliga o'zlashtirilmagan, balki o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida qayd etiladi. Lekin har qanday holda ham, ularning har biri o'zbek tili kommunikatsiyasidagi so'zlarda kuzatilishi mumkin. Mana shu 25 konsonant tasnif etilar ekan, ularning: 1) artikulyatsiya o'rni, 2) artikulyatsiya usuli, 3) akustikasi e'tiborda tutiladi.

1. Konsonantlar artikulyatsiya o'rniga ko'ra yetti tipga bo'linadi: lab-lab, lab-tish, til oldi, til o'rta, til orqa, chuqur til orqa, bo'g'iz konstantlaridan iborat.

2. Konsonantlar artikulyatsiya usuliga ko'ra to'rt tipga bo'linadi: portlovchi, sirg'aluvchi, shipildoq, affrikat konsonantlar.

3. Konsonantlar akustikasiga ko'ra ikki tipga bo'linadi: jarangli, jarangsiz konsonantlar.

Shuni ham aytish kerakki, mavjud konsonantlarning ayrimlari adabiy til uchun fonema sifatida me'yor emas.


Konsonantlar hosil bo'lishining 13 imkoniyatidan 7 tasi, konsonantlar hosil bo'lishining 42 imkoniyatidan 17 tasi foydalanilmay qolayotganligi o'zbek tili uchun nuqson hisoblanmaydi. Chunki bir-biriga yaqin talaffuz etiluvchi, o'zaro qorishtiriladigan darajadagi yaqin akustikaga ega tovushlar yondosh so'zlar qo'llanar ekan, kommunikatsiyada shubhasiz qiyinchilik tug'diradi, undan qochiladi. Shuning uchun ham sof o'zbek tili uchun konsonantlar tanlanganda lab-lab artikulyatsiya o'rnidan keyin lab-tish artikulyatsiya o'rnidan foydalanilmagan.

Konsonantlar so'z tarkibida va kommunikatsiyada bir-biriga ta'siri juda ko'p bo'ladi. Ularga unlilarning ta'sira ham faol kuzatiladi. Bu o'zaro ta'sir va tovushlarning o'zaro ta'sir natijasida o'zgarib turishi chegarasiz emas. So'zdagi tez ta'sirga beriluvchi portlovchilarning o'z himoya qobig'i ham bor, bu – aspiratsiya.

Aspiratsiya nutq kechimidagi konsonant tovush artikulyatsiyasi tugallanmasi bo'lib, u tovush payida hosil bo'lgan havo tebranishidan paydo bo'lgan havo tebranishidan iboratdir.[5:366] Bunda muskul zo'rquvi kechmagan holda, tovush yorig'i torayadi va paylari tebranadi. Yana ham aniqrog'i, u undoshdan keyingi va undosh bilan unli oralig'idagi kechgan nafas bo'lib, bir-biriga nihoyatda yaqinlashgan oralig'idan – tovush yorig'idan tebranib chiqishidir.

O'zbek tilidagi aspiratsiyani S.Otamirzayeva xabar berishicha, Namangan shevasi materiallari asosida dastlab M.I.Matusevich qayd etgan. Amalda bu hodisani S.Otamirzayeva tomonidan o'zbek tili materiallari asosida kimogramma va oksilogramma vositalarida eksperimental metod bilan o'rganib chiqilgan va u haqida maxsus maqolasi e'lon qilingan, monografiyasida alohida to'xtab o'tgan.[6: 27]

S.Otamirzayevaning qayd etishicha, aspiratsiya namangan shevasidagi portlovchi jarangsiz undoshlardan keyin kuzatiladi. Bu undoshlar t , k , p , q tovushlardan iboratdir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

Aspiratsiya undosh tovushardan keyin, ayniqsa, portlovchi jarangsiz anlautlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *t'ok, t'oz, t'ol; p'ok, p'ul, p'o'k; k'o'k, k'ech, k'o'ch; q'och, q'or, q'o'y* kabilarda.[6; 24]

Aspiratsiya haqiqatan ham, asosan, jarangsiz portlovchi undoshlarda kuzatiladi. Ammo uning cho'ziqligi shu tovushlarning pozitsiyasi bilan izchil bog'liq bo'ladi. Jarangsiz portlovchilar, agar auslaut bo'lsa, uning ketidan kelgan aspiratsiya nihoyatda cho'ziq keladi. Masalan, *tut', kech', cho'p', to'k'* kabi so'zlarda. Anlaut jarangsiz portlovchilarda u nisbatan qisqaroq bo'ladi: *ch'ok, q'o'l, t'ok, k'o'k* va hokazolardagi kabi. U odatda 25 msek. dan 45 msek.gacha qayd etiladi. Intervokal jarangsiz portlovchilarda aspiratsiya deyarli bo'lmaydi. Bo'lganda ham 10 msek.dan 20 msek. gacha qayd etiladi va bu uncha sezilarli emas. Bu intervokal undoshning jarangli undosh talaffuziga moyillashuvi va reduksiyasi bilan izohlanadi. Aspiratsiya konsonant butunligini saqlovchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham aspiratsiya qayd etiladigan konsonantlarda diereza uncha kuzatilmaydi. Dierezaga uchragan undoshlar odatda jarangli tovushga va undan sirg'aluvchiga aylangan bo'ladi. Jarangli sirg'aluvchilarda esa aspiratsiya uchramaydi. Anlaut jarangsiz portlovchilarda ham ankopa hodisasi kuzatilmaydi, chunki ularda hamma vaqt aspiratsiya qayd etiladi.

O'zbek tilida ko'pgina unli va undosh tovushlar cho'ziq qo'llaniladi. Bunday hollarda o'sha tovush uchun berilgan transkription belgilarga murojaat qilishi kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida nutq tovushlarining tasnifi ko'rib chiqildi, ular o'zbek tilda 48 tadir. Shu nutq tovushlarini transkripsion belgilari ilmiy adabiyotlarda berilgan, ammo uning yangicha tahriri ishlab chiqilishi davr taqazosi ekanligi hech kimga sir emas. O'zbek tilshunosligida unli va undosh tovushlarning tahlili, tasnifi, tadqiqi, uning darsliklarda o'rganilish manbasi ustida ilmiy izlanishlar, amaliyotga qo'llash bilan bog'liq muammolarning yechimiga oid vositalar zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Zinder L.R. Obshaya fonetika. 2-izd. –M.: VSh., 1979.
- 2.Sodiqova T. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi vatiklanishi. –Toshkent: Fan, 2006.
- 3.Reshetov V., Abdurahmonov Sh. Fonetika. –Toshkent: fan, 1953.
- 4.Mahmudov A. Sonorniy uzbekskogo yazika. –Tashkent: Fan, 1980.
5. Axmanov O.S. Slovar lingvisticheskix terminov. –M.: SE, 1966.
6. Atamirzayeva S. Eksperimentalno-foneticheskoy issledovanie namanganskogo govora uzbekskogo yazika. –Tashkent: Fan, 1970

